



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### METAKOGNITIV FAOLIYAT VA REFLEKSIVE TAFAKKURNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

**Ibrohimova Shahlo Umarali qizi**

*Samarqand viloyati Samarqand shahar*

*28-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

*E-mail: [shahloibrohimo720@gmail.com](mailto:shahloibrohimo720@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Mazkur tezisdagi metakognitiv faoliyat va refleksiv tafakkurning o'zaro bog'liqligini psixologik va pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Metakognitiv faoliyat insonning o'z kognitiv jarayonlarini anglash, monitoring qilish va nazorat etishdan iborat yuqori darajali jarayon bo'lib, refleksiv tafakkur esa o'z tajribasini qayta ko'rib chiqish, xatolarni tahlil qilish va kelajakdagi harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan fikrlash shaklidir. Tezisdagi J. Flavellning metakognitiv nazariyasi, D. Schonning refleksiv amaliyot modeli hamda so'nggi tadqiqotlari asosida bu ikki tushunchaning nazariy asoslari, o'zaro ta'siri, ta'limdagi ahamiyati va empirik dalillari yoritib berildi.*

**Kalit so'zlar:** *metakognitiv faoliyat, refleksiv tafakkur, metakognitiv, refleksiv, metakognitiv refleksiv, o'z-o'zini monitoring qilish, self-regulated learning, ta'lim jarayoni, pedagogik psixologiya.*

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilar nafaqat bilim olishi, balki o'z fikrlash jarayonini anglash va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega. Metakognitiv faoliyat va refleksiv tafakkur ana shu jarayonning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Xususan, metakognitiv faoliyat bu "fikrlash haqida fikrlash" jarayoni bo'lib, J. Flavell tomonidan 1979-yilda ilmiy aylantirilgan tushuncha hisoblanadi [1]. U o'z kognitiv jarayonlarini kuzatish, baholash va boshqarishni o'z ichiga oladi. Refleksiv tafakkur esa tajribani qayta ko'rib chiqish, undan xulosalar chiqarish va kelajakdagi harakatlarni rejalashtirishni bildiradi, bu D. Dewey va D. Schonning ishlarida chuqur yoritilgan [4]. Hozirgi kunda ushbu ikki tushunchaning o'zaro bog'liqligi ta'lim psixologiyasida dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda, chunki ular bir-birini to'ldiradi va o'quvchilarning o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'zbekiston ta'lim tizimida, xususan, oliy va umumiy o'rta ta'limda metakognitiv va refleksiv yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy va mustaqil tafakkurini rivojlantirish imkoniyati katta. Mazkur tezisning maqsadi metakognitiv faoliyat va refleksiv tafakkurning nazariy va amaliy jihatdan o'zaro bog'liqligini ochib berish va uning ta'lim jarayonidagi rolini ko'rsatib berishdan iboratdir. Shuningdek, Tadqiqot ishining vazifalari tushunchalarni ta'riflash, ularning o'xshashlik va farqlarini aniqlash, empirik dalillarni tahlil qilish hamda pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi bu bog'liqlikni O'zbekiston ta'lim kontekstida ko'rib chiqish va xorijiy tadqiqotlar bilan solishtirishdir.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Asosiy qism. Metakognitiv faoliyat insonning o'z kognitiv resurslarini samarali ishlatishga qaratilgan yuqori darajali faoliyatdir. J. Flavellning nazariyasiga ko'ra, metakognitsiya ikki asosiy komponentga ajratilgan ya'ni metakognitiv bilim (o'z fikrlash jarayonlari haqidagi bilim) va metakognitiv nazorat (jarayonlarni monitoring qilish va tartibga solish). Metakognitiv bilim nima haqida, qanday va qachon va nima uchun kabi turlarga bo'linadi. Misol sifatida ko'rishimiz mumkinki, talaba imtihon oldidan o'z xotirasini baholab, qaysi mavzuni ko'proq o'rganish kerakligini tushunsa, bu metakognitiv bilimning namoyon bo'lishidir [1]. Metakognitiv faoliyatning rivojlanishi esa bolalikdan boshlanadi va ta'lim jarayonida kuchayadi. O'tkizilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, metakognitiv qobiliyatlari zaif bo'lgan o'quvchilar materialni samarasiz o'zlashtiradi, chunki ular o'z xatolarini sezmaydi. Metakognitiv faoliyat refleksiv jarayonlarni faollashtiradi, chunki u o'z fikrlarini ichki kuzatishni talab qiladi.

Refleksive tafakkur bu o'z tajribasini qayta ko'rib chiqish va undan o'rganish jarayonidir. D. Dewey refleksiv tafakkurni "muammoni hal qilishda faol, doimiy va ehtiyotkor fikrlash" deb ta'riflagan. D. Schon esa uni "amaliyotda refleksiya" va "amaliyotdan keyin refleksiya" ga bo'lib, uning amaliy faoliyatda qanchalik muhim ekanligini ta'kidlab o'tgan [4]. Refleksiya his-tuyg'ularni tahlil qilish va ularni kelajakdagi qarorlarda hisobga olish kabi affektiv komponentlarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, refleksiv tafakkur ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunda u o'quvchilarga xatolardan o'rganishga yordam beradi. Metakognitiv faoliyat va refleksive tafakkur chambarchas bog'liqdir ya'ni, metakognitsiya refleksiyani asoslab bersa, refleksiya esa metakognitiv qobiliyatlarni chuqurlashishiga yordam beradi. Adabiyotlarni o'rganish davomida ma'lum bo'ldiki, Merkebu va hamkorlarining tadqiqotida "metakognitiv refleksiya" tushunchasi taklif etilgan bo'lib, u metakognitsiyani refleksiya sikllari bilan birlashtiradi – bu ichki kuzatish, monitoring va regulyatsiyani o'z ichiga oladi. Ularning fikricha, metakognitsiya refleksiyani boshlab beradi, lekin refleksiya his-tuyg'ular va kontekstni hisobga olib, uni transformatsion darajaga ko'taradi [2,5].

Hozirgi kunda O'zbekiston kontekstida oliy ta'limda kognitiv va metakognitiv faoliyatni rivojlantirish pedagogik texnologiyalar sinergiyasi orqali amalga oshirilmoqda. Talabalar o'quv jurnalini yuritganda ikkala jarayon birlashadi. Metakognitsiya ko'proq kognitiv monitoringga qaratilganligi, refleksiya esa affektiv va kontekstual jihatlarni qamrab olishligi bilan farqlanadi. Ammo ularning sinergetik ta'siri o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ta'lim jarayonida yuqoridagi bog'liqliklarni hisobga olgan holda quyidagi metodlarni qo'llash mumkin:

1. Metakognitiv savollar berish : "Men nima haqida o'ylayapman? Bu qanchalik samarali? Keyingi bosqichda nima qilaman?"
2. Refleksiv jurnallar, o'z-o'zini baholash va guruh muhokamalarini tashkillashtirish.
3. Muammoli o'rganish (PBL) va loyihaviy o'rganishda refleksiv komponentni majburiy kiritish.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



4. Raqamli platformalar va interaktiv o'yinlar orqali metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish.

Shu bilan birga ayta olamizki, O'zbek maktab va oliy ta'lim muassasalarida bu yondashuv o'quvchilarning mustaqilligini oshiradi va zamonaviy ta'lim standartlariga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, metakognitiv faoliyat va refleksiv tafakkur bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro mustahkam bog'liq jarayonlar bo'lib, ularning sinergetik ta'siri ta'limning sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Nazariy tahlillar va so'nggi empirik tadqiqotlarga asoslanadigan bo'lsak, metakognitsiya refleksiyani asoslab bersa, refleksiya uni affektiv va kontekstual jihatdan boyitib, transformatsion o'zgarishlarga olib keladi. Bu bog'liqlik o'quvchilarning nafaqat bilim olishini, balki o'z-o'zini anglash, xatolardan o'rganish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvni kengjoriy etish – o'quvchilar va talabalarning tanqidiy, ijodiy va refleksiv tafakkurini shakllantirish, ularni zamonaviy jamiyat talablariga tayyorlashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Kelajakdagi tadqiqotlar bu bog'liqlikni O'zbekiston ta'lim muassasalarida empirik jihatdan chuqurroq o'rganishga, turli yosh guruhlari va fanlar bo'yicha samaradorligini baholashga, shuningdek, raqamli vositalar yordamida metakognitiv refleksiyani rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilishi lozim. Natijada, ta'lim nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi tizimga aylanishi mumkin. Ushbu yondashuv ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning hayotiy muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Flavell, J.H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906-911.
2. Merkebu, J., Kitsantas, A., Durning, S.J., & Ma, T. (2023). What is metacognitive reflection? The moderating role of metacognition on emotional regulation and reflection. *Frontiers in Education*.
3. Ho, W.W.Y., & Lau, Y.H. (2025). Role of reflective practice and metacognitive awareness in the relationship between experiential learning and positive mirror effects: A serial mediation model. *Teaching and Teacher Education*.
4. Ismailova, N.I. (2025). Bo'lajak tarbiyachilarda metarefleksiv fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari. *Akrabgacha va maktab ta'limi*.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi materiallari (2023-2025). *Pedagogik psixologiya va ta'lim texnologiyalari bo'yicha tavsiyalar*.